



ARTICLE INFO

Received: 24th October 2022

Accepted: 01st November 2022

Online: 02nd November 2022

KEY WORDS

Ta'lim tizimi shakllanishi, ijtimoiy sohani rivojlantirish xarajatlari, tendensiyalar, moliyalashtirish, texnologiya, metod, sifat va samaradorlik, munosabatlar, huquqiy yechim masalalari, ta'limdagi kamchiliklar.

Bizga ma'lumki, oxirgi yillarda ta'lim tizimida ko'pgina islohotlar va o'zgarishlar bo'lmoqda. Xususan, xalq ta'limi tizimida ham oxirgi besh yilda natijalar salmog'i o'n yilliklarga teng tub burilishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga kirishilgani, davlatimiz boshlig'ining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni, "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada murakkablashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha samarasini oshirish Kontseptsiyasi asosida izchil islohotlarning amalga oshirilayotgani o'tgan kun va bugun

TA'LIM TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Mallayev Jahongir Shahobiddinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro huquq fakulteti 3-kurs talabasi

jahongirmallaev07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7273943>

ABSTRACT

Mazkur maqolada ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi va xorij ta'lim tizimidagi islohatlar hamda ta'lim sohasini yuqori darajaga olib chiqishda fuqarolik – huquqiy tartibga solishning muammolari va ularning yechimlari xususida so'z boradi. Shuningdek, ta'lim xarajatlarini rejalashtirish va davlat byudjetidan moliyalashtirish tendensiyalari hamda muammolari ko'rib chiqilgan.

orasidagi tafovutni yanada aniqroq aks ettirmoqda. Bunga qo'shimcha sifatida aytishimiz joizki, Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni xalq ta'limi tizimi uchun asosiy ahamiyatga ega hioblanadi. Farmonda jamiyatimizda muallimlarning obro'-e'tibori va nufuzini yanada oshirishga, ularning o'z mehnatiga munosib haq to'lash, o'qituvchilarni ortiqcha narsalardan, ya'ni qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shu kungacha erishgan yutuqlarini rag'banlantirish masalalari qonuniy tarzda belgilab berilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimi turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:



O'zbekistonda ta'lim tizimi turlari¹

No	Ta'lim turlari	Ta'lim turlarining tarkibi	
1	Maktabgacha ta'lim va tarbiya	-	
2	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim	boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar); tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar); o'rta ta'lim (X — XI sinflar).	
3	Professional ta'lim	boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim	
4	Oliy ta'lim	bakalavriat; magistratura	
5	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)); doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc))	
6	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	-	
7	Maktabdan tashqari ta'lim	-	

¹ O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni asosida.



Ta'lim tizimining samaradorligi uni moliyalashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Davlat ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Shuningdek, pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish davlat ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to'sqinlik qilishi kerak emas. Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari quyidagilardan iboratdir, ular quyidagicha:

- 1) Shartnomalar asosida, shu jumladan xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hisobiga tushgan pullar;
- 2) Jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot, o'quv-uslubiy yoxud qonunda taqiqlanmagan ishlarni bajarganda, o'sha pullar evaziga;
- 3) Binolar, asbob-uskunalarni yoxud inshootlarni ijaraga berish hisobidan tushgan pullar;
- 4) Jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari va shularga o'xshash mablag'lar hisobidan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish; xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish kabi vazifalar ko'zda tutilgan.²

Shuningdek, xalq ta'limi tizimini shakllantirish va rivojlantirishimizda asosiy muammolardan biri bu moddiy-texnik bazaning yetishmasligi. Ikkinchidan, ilg'or texnologiyalarni amalyotga qo'llashda bir qator muammolarga duch kelayotganligi va chet eldan mutaxassislarining jalb qilinishi sustligi. Uchinchidan, ilg'or texnologiya asosida bosqichma-bosqich qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ishlarini olib borish zarur hisoblanadi. Bizga ma'lumki, 2030 yilgacha umumta'lim maktablarimizda moddiy-texnik bazasini yaxshilanishi shu bilan birgalikda ta'lim tizimida raqobatni kuchaytiradi. Bugungi kunda ta'lim tizimini moliyalashtirish

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni asosida.



mexanizmining asosiy elementi sifatida moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi jahon amalyotini oladigan bo'lsak, ya'ni ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda 2 ta muhim manbadan foydalanadi. Birinchidan, byudjet mablag'lari; ikkinchidan esa byudjetdan tashqari pullar. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz bilan xorijiy mamlakatlarning qiyosiy-solishtirma tahlilini keltiradigan bo'lsak, ajratilayotgan mablag'larning davlat byudjetiga ulushi 2-3 baravar ko'pdir boshqa davlatlarga qaraganda, ya'ni O'zbekiston 25,9 % ni, Buyuk Britaniya 12,4 % ni va Germaniya 9,2 % ni hamda AQSH esa 11,9 % ni tashkil qiladi. Zero, mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirish bevosita mazkur sohani moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Shularni hisobga olgan holda, davlatimiz o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab ijtimoiy soha va aholini qo'llabquvvatlashga katta e'tibor berib kelmoqda. Har yili ijtimoiy sohaga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larning ulushi jami xarajatlarning o'rtacha 52-55 foizini tashkil etadi. 2020 yilda davlat byudjeti xarajatlarining 51,5 foizini ijtimoiy xarajatlar tashkil etgan bo'lib, 65 048,5 mlrd so'm miqdordagi tasdiqlangan parametrdagi 74 231,8 mlrd so'm hisobida ijrosi ta'minlandi. Ijtimoiy xarajatlar tarkibida sezilarli miqdordagi mablag'lar ta'lim sohasiga yo'naltirilmoqda va yo'naltirilishda davom etmoqda. Ijtimoiy soha xarajatlari oshirilmoqda, 2021 yilda ushbu yo'nalishlarga 86 622 mlrd so'm yoki jami xarajatlarning 52 foizi rejalashtirilgan. 2022 yilda davlat byudjeti xarajatlarining yarmi - 105 199,5 mlrd so'm yoki umumiy xarajatlarning 49,0%

ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiriladi. Ijtimoiy xarajatlar tarkibida eng katta ulushni esa ta'lim xarajatlari tashkil etmoqda.³

Shuningdek, 2022 yilda xalq ta'limi sohasi xarajatining bir nechtasini misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, ya'ni ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar 27,500,10 mlrd.so'm ulush foizi esa 89,8 va joriy tamirga to'lovlar 285,3 mlrd. so'm ulush foizi esa 0,9 ni tashkil qilmoqda. Joriy ta'mirlar uchun xarajatlar salmog'i keskin kamayib borishi arafasida. Mazkur sarf-xarajatlar yetishmasligi maktab binolarni jismonan yaroqsiz holatga tezlashtirishi mumkin, qo'shimcha sifatida komunal xizmatlar uchun o'z vaqtida to'liqliligi miqdorda haq berishi, o'quv-uskunalar va materiallarni tuzatish zaxirasi imkonini bermaydi. Umuman olib qaraydigan bo'lsak, bunday holatlar oxir-oqibat o'quv jarayoni sifatini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, maktabni rivojlantirish doirasida yangidan qurilayotgan ta'lim muassasalari ko'pligi va ularni yangi narsalar bilan ta'minlash uchun mablag'lar talab etayotganligi ham vaziyatni biroz qiyinlashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida shakllanib bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi yetuk barkamol insonni va mutaxassisni tarbiyalash jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi doirasida faoliyat olib boruvchi ta'lim muassasalari ilg'or, demokratik va insonparvar g'oyalarga tayangan holda, hamda yangicha mazmunga ega bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy o'rin tutadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aytib o'tish joizki,

³ Tegishli yillardagi "Fuqarolar uchun byudjet" nashrlari asosida hamda Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



ta'lim tizimini shakllantirish, shuningdek, ta'lim mazmunini yangilash ta'lim sohasida olib borilayotgan ko'plab islohotlarning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy, ma'naviy hayotda, odamlarning turmush tarzi, ongida sodir bo'layotgan o'zgarish, yoshlarning ko'plab yangiliklarga, nimanidir ishlab chiqarishga tayyorlash amalyotini aks ettirish xalq ta'limi tizimining bosh vazifasi bo'lib qoldi.

Ko'plab o'zgarish va yangiliklarga qaramasdan, hali didaktika sohasida ko'plab ochilmagan, tadqiq qilinmagan sirlar, muammolar ham ancha topilishi mumkin. Ana shunday muammolardan biri – ta'limni ilmiy asosda shakllantirish masalasi hisoblanadi. Bunday muammoning bugungi kungacha "mavhum" bo'lib qolayotganligi uning juda marakkabligi bilan izohlashimiz mumkin.

Shuningdek, qo'shimcha sifatida aytadigan bo'lsak, maktab hayotiga kirib kelgan mataxassis olim, ustoz yoxud o'qituvchilarning pedagogik fikrlashidan asta- asta joy olayotgan pedagogik texnologiya muammolaridan biri sifatida optimal darajada shakllantirish masalasidir. Ijtimoiy tajriba, ya'ni didaktik shakllantirish manbai, desak yangilashmagan bo'lamiz. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, o'tgan XX asrning keying 30 yili mobaynida mashhur didaktik olimlar V.V.Kraevskiy va M.N.Skatkin kishilar rahbarligida ma'lumot mazmuniga pedagogik tahrirlash hamda didaktik loyiha tizimini shakllantirishni tayyorlash nazaryasi, amalyotida esa yangi yo'nalish asoslagan edi. Shuningdek, u ijtimoiy tajriba mohiyatini tahlil qilib, didaktik loyihalarni yaratish tizimini yoki g'oyasini ishlab chiqargan desak aslo adashmagan bo'lamiz.

Demak, nafaqat ta'lim tizimini shakllantirish, takomillashtirish va rivojlantirishda balki huquqiy tartibga solish jihatdan ham eng asosiy yunalishlardan biri sifatida ta'lim tizimi jarayonining texnologiyalashtirishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu jarayonning samaradorligini oshirishda quyidagi bajarilishi kerak bo'lgan eng asosiy mazmunga ega: zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini shakllantirishda va rivojlantirishda uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv asosida, ta'lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqazo etadi. Qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, misol uchun o'qituvchining kasbiy faoliyatini shakllantirishda ta'lim tizimining jarayonini loyihalash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir o'quv kursini o'rganishda alohida mavzu va bo'limlarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Demak, pedagogik amaliyot mohiyat – mazmunini tahlil qilish natijasida ta'lim tizimi jarayonini shakllantirishning bir qancha qonuniyatlari farqlandi.

Mutaxassis olimlar ta'lim konsepsiyalarini yaratishda, dastur va o'quv darsliklarini tuzishda loyihalash amalyotini amalga oshiradi. O'qituvchilar yillik, choraklik, hamda haftalik reja taqsimotini tuzib olishi, dars konspektini tayyorlashda ta'lim mazmuniga pedagogik ishlov berib ta'lim loyihasini shakllantiradi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqadiki, sinf o'quvchilarining yoshi, darslarga tayyorgarlik qay darajada ekanligi, haqiqiy tushunib yetish imkoniyatlari, zarur holatlarda individual xususiyatlari



o'rganilib turli – xil didaktik loyihalar o'z asosini topadi.⁴

Didaktik shakllantirish, ya'ni bu ta'limning amal qilish namunasini tayyorlash protsess bosqichi hisoblanadi. U jarayon sifatida shakllantirish faoliyati, vositasi yoxud predmetlaridan tashkil topadi. Bunday protsessda ma'lumot mazmun – mohiyati yoki uning bir bo'lagi yoxud bir qismi ta'lim materialini shakllantirish predmeti funksiyasida qatnashadi. O'quv materialiga pedagogik tuzatilib beriladi va darslikdagi holatdan yangi ko'rinishga olib chiqiladi. Ta'lim, o'quv topshiriqlari, ko'plab muammolar, testlar tizimi va shunga o'xshash kabilar o'quv materialining o'qitish hamda o'qish holatlariga asosan yangicha holatlarga o'zgartirilgan – loyihalashtirilgan shakllardir. Bundan tashqari, tizimni shakllantirish loyiha muallifining didaktik bilimlari va ko'nikmalari, ushbu holatlar natijasida orttirgan realistik hayotiy tajribasi loyihalash vositasi bo'lib, ular tizim shakllanish sifatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu holatlardan tashqari, ya'ni ta'lim tizimini shakllantirilishida va yuqori pog'onaga olib chiqishda didaktik bilimlar ko'lami, hajmi, asosiylikiga, shuningdek pedagogik tajribaning yetukligi, uning puxta egallanganligiga ko'ra didaktik loyihalar bir – biridan tubdan farqlanadi desak adashmagan bo'lamiz. Shu o'rinda, ya'ni nafaqat didaktik loyihalarning yoxud ta'lim tizimining vujudga kelishi va rivojida hamda fuqarolik – huquqiy tartibga solinish masalalarida ham samaradorlik hamda sifat pirovard natijasida muallifning bilimi, tajribasi va hoyatda qanchalik

izlanishlar olib borilishida va uning mohirligiga borib taqaladi. Shuningdek, har qanday masalani hal etishda, ya'ni fuqarolik – huquqiy tartibga solinish bo'ladimi yoki iqtisodiy, siyosiy bo'ladimi va boshqalarini tartibga solish bo'ladimi buning zamirida albatta insonning to'plagan yaxlit bilimlar kaliti yotadi. Shu o'rinda insonning aqliy mehnati natijasida yaratgan fan, san'at, intellektual faoliyat natijalari, ashyolar, ixtirolar, ismga bo'lgan huquq, mualliflik huquqi va boshqalar fuqarolik – huquqining shaxsiy mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari bevosita uning obyekt bo'lib xizmat qiladi hamda tashkiliy – huquqiy masalalar esa uning predmetlaridan biri hisoblanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, misol sifatida fuqarolik – huquqining subyektlari o'rtasida yazaga keladigan munosabatlar, ya'ni talablar yoki vajlar bevosita nizo predmeti hisoblanib, "dela" esa uning obyekt sifatida namayon bo'ladi. Ushbu holatlardan kelib chiqadiki, ta'lim sistemasi loyihasi va rivojlanishida fuqarolik – huquqining obyektisiz, predmetisiz huquqiy ijtimoiy munosabatlar vujudga kelmaydi hamda ularning asosida huquqiy munosabat masalalari yuzaga keladi. Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohatlarning markazida iqtisodiy islohatlar bilan birgalikda ijtimoiy – siyosiy va huquqiy rivojlanishlar turganligi asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning rivojlanishida, inson tafakkurining o'zgarishida ham fan, ta'lim, madaniyat va shu bilan birga ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek tarixiy urf – odatlari, udumlari va tartib – qoidalar, turmush tarzi va qadriyatlarining asosiy mezon sifatida yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz bilan xorijiy ta'lim

⁴ Ta'limni didaktik loyihalash (risola), M.H.Mahmudov, - T. A. Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2002.



muassasalarining ilm – fan sohasini yoxud ta’lim tizimini rivojlantirish va fuqarolik – huquqiy tartibga solish masalalari bir – biridan ancha farqli jihatlari mavjud. Qisqacha qilib aytadigan bo’lsak, ular qo’yidagicha namayon bo’lishi mumkin: 1) oliy ta’lim muassasasi faoliyatini yuksaltirishga, samaradorligini oshirishga va huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid takliflar kiritishdagi pedagog - xodimlar yoki jamoa a’zolarining loqaydlik va e’tiborsizligi; 2) ta’lim muassasasi hayotidagi mavjud kamchiliklarni har doim tanqid qilish va pedagog - xodimlarga nisbatan hurmatsizlik va murasasizlik; 3) pedagog - xodimlarning hamkorlik boshqaruvidagi qatnashishi sustligi va ularning faol bo’lmasligi.

Yuqoridagi motivlarni hal qilishda rahbar shaxs qo’yidagi jihatlarga alohida e’tibor berishi lozim bo’ladi:⁵

- faqat jamoa fikrini inobatga olib ish ko’rish emas, aksincha ularning erkin ish olib borishiga, o’z ustida ishlashiga va ijod qilishiga shart – sharoitlarini yaratib berish;

- mehnatni ratsional tashkil qilish, ya’ni qog’ozbozlikdan, majlisbozlikdan, foydasiz ishlardan tiyilishi hamda vaqtni qadriga yetish lozimligi;

- boshqaruvni faollashtirish, ya’ni jazo qo’llashga emas, balki rag’batlantirishga, qo’llab – quvvatlashga, turli shart – sharoit qilib berishga erishish.

Shuningdek, ta’lim muassasalari rahbarlari o’rtasida hamkorlik munosabati undagi psixologik muhitni belgilab

beruvchi omil sifatida qabul qilinadi. Shu o’rinda aytish joizki, birinchidan, ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarni kiritish hamda ularni amalga oshirishda pedagog – o’qituvchilarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish, shuningdek ma’ruza, adabiyotlar tavsiya etilishi zarur ikkinchidan, zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida ishlamoqchi bo’lgan o’qituvchilarni yangicha pedagogik texnologiyani qo’llash jarayoniga o’rgatish yuzasidan tashkiliy ishlarni amalga oshirish: ta’lim jarayonining yaxlit loyihasi ishlab chiqilishi, jarayonda aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish, usul va texnik vositalarni tanlash va shunga o’xshash ko’plab misollar keltirishimiz mumkin. Bizga ayonki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni yurtimizda oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi qilinadigan ishlar yo’nalishlari tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solinishi ko’rsatilib o’tilgan.⁶ Hozirda mamlakatimizda xorijiy davlatlarning institutlari yoki universitetlari filiallari evaziga oliy ta’lim tashkilotlari soni 180 dan ortig’ini tashkil qiladi. Shu o’rinda, ta’lim tizimidagi iqtisodiyotning haqiqiy holatidan kelib chiqqan holda o’qishning sirtqi, kunduzgi va kechki hamda masofaviy yo’nalishlari ochildi. Lekin ushbu ishlarni olib borish jarayonida qilinishi kerak bo’lgan bir qancha

⁵ R.Mavlonova, N.Rahmonqulova Boshlang’ich ta’lim ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O’quv qo’llanma, - T.:G’afur G’ulom, 2013.
Ne’matova F.B. Problems of designing primary education. 2020 yil.

⁶ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni to’g’risida.



muammolar mavjud, ya'ni oliy ta'lim bilan aholining 13 foizi qamrab olingan. Qabul qilish uchun qat'iy kvotalar belgilangan. Ushbu holatlardan kelib chiqadiki, oliy ta'lim bilan barchani qamrab olishning imkoni mavjud emas. Bulardan ko'rinib turibdiki, yuqorida ta'kidlab o'tilganlarni xalqaro ta'lim tizimiga moslashtirish zarur. Ta'lim tizimida yana bir huquqiy-tartibga solish masalalaridan biri bu – oliy ta'lim har bir bitiruvchini ish bilan ta'minlashni asosiy maqsad qilib, faoliyatini olib bormaydi. Biroq mamlakatimiz kelajakda yaratilishi mumkin bo'lgan ish o'rinlar soniga kadrlar tayyorlash siyosatini olib bormoqda. Yana biri bu - ko'plab kadrlarimiz chet elga chiqib ketmoqdalar, ya'ni MDH davlatlariga. YUNESKO ning statistika instituti ma'lumotiga qaraganda, 2020 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 53 ming nafar talaba xorijdaligi aytilgan. Ularning asosiysi Rossiya, Ukraina, va Qazog'iston hukumati mamlakatimiz fuqarolari uchun 2020 yilda 10 ming kvota ajratgan edi. To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tarkibi zarur salohiyat talab etadigan kadrlarni tayyorlashga imkon bermaydi hamda o'qituvchilarning mansab darajasiga raqobatlashadigan emas, ushbu holatlar pedagoglarning o'z ustida ishlashiga yo'l ochmaydi va rahbariyat tomonidan ular o'quv ishlariga bog'liq bo'lmaydigan ishlarga doimiy jalb etiladi hamda bular real bo'layotgan muammolar desak adashmagan bo'lamiz. Ayniqsa, yurtimizda yoshlarning oliy ta'lim olishga ishtiyoqi baland, ammo oliy ta'limda kvotalarning cheklovi mavjud bu asosiy muammolardan biridir va yana biri hozirda to'liq moliyaviy mustaqil emasligidir. Ushbu holatda esa Qonunchiligimiz davlat oliy ta'lim tashkilotlariga xususiyashtirishga imkon bermasligi ta'lim

tizimi beznisiga yirik investitsiya kiritishiga to'sqinlik qiladi va investorlarning qiziqishlarini pasaytirishi mumkin. Bugungi paytga kelib mamlakatimiz aholisi 36 milliondan ortiq bu esa oliy ta'lim tashkilotlarining o'sishiga ham sabab bo'ladi. Yuqoridagi holatlarni xorijiy davlatlar bilan qiyoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida ancha farqlar seziladi. Misol uchun, Rossiyada 607 ta davlat va 358 ta nodavlat tashkilotlar faoliyat olib boradi. Ularda xammasi bo'lib 4,7 million talaba tahsil olmoqda. Rossiya aholisi soni taxminan 145,3 mln. Angliyada esa 164 ta oliy ta'lim tashkiloti mavjud (axolisi taxminan 68 mln) talabalar soni 2021-2022 yildagi statistikaga qarasa taxminan 2 million 510 mingdan ortiq, ulardan taxminan 440 mingdan ortiqrog'i xorijiy fuqarolardir. Shuni aytib o'tish zarurki, 2030 yilgacha asta-asta oliy ta'limga qamrab olish 50 foizdan oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, mamlakatimizda rejali iqtisodiyotdan voz kechgan bo'lsada, ta'lim tizimida hali ham kvotalar va rejalashtirishning foydasiz usullaridan foydalanib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim sohalarida bozor iqtisodiyoti mexanizmlari joriy etilmagan.

Bizga ayonki, oliy ta'lim tashkilotlari qat'iy kvotalar bilan ishlaydi, mavjud oliy ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasi, pedagog xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv texnik ta'minoti va kvotadan tashqari abituriyentlarni qamrab olish imkoniyatiga ega emasligi ayondir. Xorijiy universitetlarning filiallarini ochish mexanizmlari normativ-huquqiy hujjatlarda aniq darajada keltirilmagan va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida raqobat mavjud emas. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarda iqtidorli talabalarni o'ziga jalb qilmoqda va bir-birlari bilan raqobatda



hamda ularda ishga joylashish darajasi indeksi (indekstor) da aniq ko'rsatilib qo'yiladi. Ularning qanchalik tez va nufuzli ishga joylashganligi bitiruvchilar sifatini belgilaydigan muhim mezonlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Ta'lim sifatini oshirishda oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat bo'lishi kerak. Ushbu masalani hal qilishda, bir xil yo'nalishda kadrlar tayyorlaydigan universitetlarni oshirish zarur bo'ladi. Ayniqsa, ta'lim tizimini shakllantirish va provard natijaga hamda huquqiy-tartibga solishda bozor iqtisodiyoti, jamiyat rivoji ehtiyojlarini chuqur anglagan zamonaviy boshqaruvchi shaxslar, ta'limga innovatsion tarzda yondashadigan pedagog kadrlarning kamligidir. AQSH, Angliya va boshqa davlatlarining ta'lim tizimini oladigan bo'lsak, dunyoda eng kuchli raqobat sharoitida faoliyat olib bormoqda. Misol uchun AQSHni oladigan bo'lsak, Shanxay reytingiga ko'ra, dunyoning 30 ta reytingi balandligi bo'yicha universitetlarning 22 tasi, shuningdek eng mashhur universitetlarning 100 tasidan 51 tasi esa AQSH hududiga to'g'ri keladi. Shu o'rinda, AQSH ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning 99,9 foizi, o'rta bo'g'inida esa 94,5 foizni tashkil qiladi va ta'lim tizimlariga mablag' ajratishda yetakchilardan hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishga moliyaviy resurslarning cheklanganligi, teskari holda aytganda ma'muriy - buyruqbozlik elementlarini o'zida saqlab qolganligi, shuningdek tizim tomonidan mavjud tartibga solishning mavjud modeli ham to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, top 1000 talikka kirgan tashkilotlarning ko'pi xususiy universitetlar hisoblanadi. Ular o'z darajasini saqlab qolish va oshirish uchun

sifatli kadrlarni mehnat bozoriga olib chiqishga kurash olib boradi. Mamlakatimizda ham oliy ta'lim tizimini xususiy qilish kerakdir. Demak, xususiy ta'limlarning oshishi bir-biriga raqobatni kuchaytiradi va bularning evaziga ta'lim sifatiga alohida holatda e'tibor qaratiladi. Xususiy ta'lim sifatini yaxshilash uchun malakali, tajribali, raqobat qilaoladigan, professor-o'qituvchilarning tarkibini shakllanishiga harakat qilinadi. Ushbu holatlar esa ijtimoiy va iqtisodiy holatni kafolatlaydi va xorijiy yuqori malakali kishilarni yurtimizga jalb qilish imkoni mavjud bo'ladi. Shuningdek, yuqoridagi holatlarda ta'kidlab o'tilganidek, dunyodagi ta'lim tizimi taraqqiyot etgan AQSH va Angliya kabi davlatlar endaument-investitsiya fondi orqali mablag'lar jalb qilinib, oliy ta'limning mustaqilligini ta'minlashga asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi va buning yaxshi tomoni shundaki ushbu mablag'lar xayriya maqsadida bo'ladi hamda eng ijobiy tomoni esa soliqlardan ozod etilishi, moliyaviy mustaqillikni ta'minlashga asosiy yo'lini ochib beradi. Ushbu mablag'lar malakali kadrlarga, professor-o'qituvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlariga, moddiy-texnik bazani yaxshilanishiga va ularning oylik maoshlariga hamda boshqa ishlarga sarflanadi. Misol uchun Nyu- Jersi kolleji jamg'armasi 2022 yilda esa 30 foizga o'sdi va natijada 22,7 milliardga erishilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda donorlar va fuqarolarning xayriya va xayr-ehson an'analari hamda xayr-ehson uchun asosiy ruhlantiruchi vositalari rivojlanmay qolgan hamda homiylar uchun ham yetarlicha soliq imtiyozlari mavjud emas. Umuman olganda, universitetlarning ko'pchiligi yuqoriroq darajadagi boshqaruvlarga qiziqmaydi. Mana shularni



bartaraf qilish orqali top-1000 universitetlar qatoriga qo'shilish mumkin bo'ladi, sababi shuki butun dunyoda oliy ta'lim indekslarini tuzishda jamoa xayriya fondi mezoni muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning yetakchi nufuziga ega universitetlar filiallarining butun majmuasidan iborat bo'ladigan erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish kerak va bu bilan Markaziy Osiyoda yetakchi innovatsion yaxlit markaz paydo bo'ladi hamda mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga katta qadam tashlanadi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni, yurtimizning barcha viloyatlarida ta'lim berish jarayonini o'z ichiga oluvchi xususiy yoki xorijiy universitetlarining filiallarini tashkil qilish ta'lim tizimini yaxshilanishiga va sifat kafolatlari ta'minlanadi hamda ularning o'rtasida sog'lom raqobat muhitini oshirishga yordam beradi.

Shuni aytib o'tishim kerakki, yurtimizda ta'lim tizimini shakllantirilishiga va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlarimizning va ilmiy izlanuvchilarimizning o'рни muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni, zamonaviy o'zbek pedagogikasida E.Qodirov, S.Dolimov, L.Mo'minova, K.Hoshimov singari olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardir. Shuningdek, ular ta'lim tizimi shakllanishi va tarbiya jarayonlarining qonuniyatlarini, tarkibi va uni tashkil qilish mexanizmlarini tadqiq etgan va tarbiyaviy hamda o'quv ishlarining mazmunini, prinsiplarini yoki tamoyilini ularni tashkil qilish usullari, metodlarini topishga o'z hissalarini qo'shganlar. Shu o'rinda, kadr tayyorlash dasturi bo'yicha kuchli mutaxassislar tayyorlash masalasi asosiy o'rin egallaydi.

Kasbiy tayyorgarlikka zamonaviy talablar yoki yaxlit bilim, ko'nikma va malakaning umumiy tizimini takomillashtirish, asosiysi esa kompetensiyalarni shakllantirish hamda zamon talabiga asosan uyg'unlashtirishga katta e'tibor berilayapti. Shuningdek, "asosiy kompetensiya" tushunchalari turli xorijiy olimlar tomonidan yetkazib berilgan desak yanglishmagan bo'lamiz. Misol uchun, A.V.Xutorskiy pedagoglarning asosiy kompetensiyalarini bayon qiladi, ya'ni o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati asosida namayon bo'lishini bildirgan. U atrof-muhitdagi voqea va jarayonlarning mohiyatini ko'ra oladi hamda anglab yetadi, bunga uzini yo'naltiradi, pedagog sifatida fikrini ifodalishini va muammolarga yechimlar topa olishini aytib o'tgan. Demak, bu kompetensiyada o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridan o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz.

Xullas, ilg'or xorij tajribasidan foydalangan holda o'zimizning tizimlashtirilgan ta'lim tizimidagi sifat borasida amalga oshiriladigan ishlarni yaxlitlash va real hayotda qo'llash bugungi dolzarb muammolardan biridir. Shuningdek, bunday masalalarni hal qilishda, xorij tajribasidan samarali foydalanish, malakali mutaxassislarni tayyorlashda va shu bois o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishga ta'lim muassasalarida yangicha yondashuv ishlab chiqilishi kerak. Chunki, o'quv mashg'uloti jarayonlari pedagogik ijodkorlikning muhim markazi bo'lib, uni tashkil qilish va boshqarishga aniq, innovatsion yondashuv ta'lim egallovchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka va birgalikda ishlashga hamda kaspiy



kompetensiyalarni takomillashtirish orqali ta'lim tizimidagi sifatga e'tibor berishga undaydi. Shuningdek, ta'lim tizimi sifatini oshirishdagi kamchilik va muammolar, huquqiy-tartibga solinishi, yo'lidagi maqsad va vazifalarni aniq belgilanishi, buning uchun jahonda tan olingan tajribadan foydalanish hamda axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llash,

bo'lajak kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilanishga xizmat qiladi va jarayon samaradorligini oshiradi. Shu o'rinda, ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan turli texnologiyalar va metodlardan foydalanishga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillanishiga olib keladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ. 637-sonli Qonuni asosida.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5712-son Farmoni.
3. T.Malikov, N.Xaydarov. Davlat byudjeti. 2007-yil.
4. Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida "Fuqarolar uchun byudjet" 2021 va 2022 yillarda tuzilgan.
5. Ta'limni didaktik loyihalash (risola), M.N.Mahmudov, - T.A.Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2002.
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni asosida 637-sonli, 2020-yildagi.
7. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma, - T.: G'afur G'ulom, 2013.
8. Nematova F.B.Problems of desgning primary education 2020 yil.
9. Mutalipova M., Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar. - Tashkent: 2017 yil.
10. Kovolyova G.S.,Rasnyanskaya K.A. Osnovniye rezultati mejdunarodnogo issledovaniya PISA-2015. - Moskva: 2015.
11. Global ilmiy jarayonda integratsion ta'limni rivojlantirish usullari. Respublika amaliy konferensiya materiallari. Guliston, 2019
12. Yeldasheva G, Karimova G. Ta'lim tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi: 2018.
13. A.Musurmonova, X.Ibragimov, O.Jamoliddinova va boshqalar. Umumiy pedagogika. Yoshlar nashriyoti. Toshkent - 2020.
14. Kadrlar tayyorlash milliy tasturi: pedagogik tadqiqotlar va muammolari, T.,1999 va 1997 yillar.
15. Pedagogika.(Qo'llanma. Professor A.Ilina taxrir ostida). M 1984.